

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil).– 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARI VA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI O'RTASIDAGI IJTIMOY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI

Sagindikov Maxset Djubatkanovich

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi

Email: sagindykovmahset@gmail.com

Tel: +998913700990

ORCID ID: 0009-0005-3947-3440

Annotatsiya. tezisda O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda mahalliy hokimiyat vakillik organlari — Xalq deputatlari Kengashlari va nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikning хуқуқий asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda ijtimoiy sheriklik tizimining qonunchilik bazasi, xususan, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi va "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunlarning amaliyotdagi o'rni yoritib berilgan.

Maqolada O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda mahalliy hokimiyat vakillik organlari — Xalq deputatlari Kengashlari va nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda ijtimoiy sheriklik tizimining qonunchilik bazasi, xususan, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi va "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunlarning amaliyotdagi o'rni yoritib berilgan.

Shuningdek, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal yetish, aholining ojiz qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda Kengashlar va NNTlar hamkorligining samarali mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Xalq deputatlari Kengashlari huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari faoliyati hamda grantlar ajratish amaliyotining huquqiy manbalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xalq deputatlari Kengashlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ijtimoiy sheriklik, fuqarolik jamiyati, qonunchilik bazasi, jamoat fondi, ijtimoiy loyihalar, jamoatchilik nazorati.

LEGAL FRAMEWORK FOR SOCIAL PARTNERSHIP BETWEEN KENGASHES OF PEOPLE'S DEPUTIES AND NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS

Sagindikov Maxset Djubatkanovich

Independent researcher at Karakalpak State University

Annotation. The thesis analyzes the legal framework for the development of civil society institutions in the Republic of Uzbekistan and the social partnership between the representative bodies of local government - Councils of People's Deputies and non-governmental non-profit organizations (NGOs). The study highlights the legislative framework of the social partnership system, in particular, the role of the laws "On Social Partnership" and "On Non-Governmental Non-Profit Organizations" in practice.

The article analyzes the legal framework for the development of civil society institutions in the Republic of Uzbekistan and the social partnership between the representative bodies of local government - Councils of People's Deputies and non-governmental non-profit organizations (NGOs). The study highlights the legislative framework of the social partnership system, in particular, the role of the laws "On Social Partnership" and "On Non-Governmental Non-Profit Organizations" in practice.

Also, effective mechanisms for cooperation between Councils and NGOs in solving regional socio-economic problems, supporting vulnerable groups of the population, and implementing social projects are considered. The activities of public funds for supporting non-governmental non-profit organizations and other civil society institutions under the Councils of People's Deputies, as well as the legal sources of the practice of allocating grants, are also analyzed.

Keywords: Kengashes of People's Deputies, non-governmental non-profit organizations, social partnership, civil society, legislative framework, public fund, social projects, public control.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i16/n16>

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasi jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini fuqarolik jamiyatining asosi, 120-moddasi esa viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarini davlat hokimiyatining vakillik organlari sifatida belgilaydi [1]. Ushbu normalar o'zaro bog'liq talqin qilinganda, Kengash aholi irodasini hududiy darajada ifoda etuvchi ommaviy hokimiyat instituti, NNT esa ijtimoiy guruhlar manfaati va tashabbusini qaror qabul qilish jarayoniga olib kiruvchi mustaqil tuzilma ekani ko'rinadi. Shu sababli ular o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik ma'muriy bo'ysunuv emas, umumiy hududiy muammolarni aniqlash, resurslarni birlashtirish va natija uchun o'zaro hisobdorlikka asoslangan konstitutsiyaviy-huquqiy hamkorlikdir.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun Kengashlarning aholini hududni boshqarishga jalb etishini ta'minlash vazifasini belgilaydi [2]. Bu vazifa faqat deputat qabuli bilan cheklanmay, NNTlarni doimiy komissiyalar muhokamasiga, hududiy dasturlar va budjet ustuvorliklarini tayyorlashga, qarorlar ijrosini baholashga jalb etishni ham qamrab olishi lozim. Hokim va Kengash raisi lavozimlarining ajratilishi mahalliy vakillik organining mustaqil mavqeini kuchaytirgan sharoitda NNTlar bilan bevosita hamkorlik ijro hokimiyati faoliyatining takrori emas, qarorlarning ijtimoiy asoslanganligini ta'minlovchi vakillik mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

«Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasi mazkur institutni davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar, normativ-huquqiy hujjatlar va fuqarolar manfaatlariga daxldor qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligi sifatida ifodalaydi [3]. Qonunning 6–11-moddalari dasturlarni tayyorlashda ishtirok etish, ishchi guruh va maslahat organlarida qatnashish, qo'shma tadbirlar o'tkazish, bitimlar tuzish, loyihalarni amalga oshirish va axborot almashish shakllarini belgilaydi. Demak, sheriklik oddiy maslahat emas, NNTning qarorni tayyorlashdan uning natijasini baholashgacha bo'lgan sikldagi barqaror ishtirokidir. «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonun kafolatlaydigan o'zini o'zi boshqarish xususiyati esa hamkorlik NNTni davlat organining yordamchi bo'linmasiga aylantirmasligini talab qiladi [4].

Milliy ilmiy qarashlarda M. Qirg'izboyev fuqarolik jamiyati rivojini erkin tashabbus, uyushish madaniyati va hokimiyatni jamoatchilik ta'siri bilan muvozanatlashtirish orqali izohlaydi [5;256]. E. Nishonboyeva ijtimoiy sheriklikda manfaatlarini muvofiqlashtirish va konsensusga erishishni ustuvor deb biladi [6]. Birinchi yondashuv avtonomiyani, ikkinchisi kelishuvni markazga qo'yadi. Bizningcha, ular bir-birini to'ldiradi: NNTning institutsional mustaqilligi haqiqiy muzokaraning sharti, kelishuv esa hududiy muammoni birgalikda hal qilish natijasidir. Mustaqil pozitsiyaga ega bo'lmagan subyekt bilan tuzilgan bitim formallashadi, murosaga yo'naltirilmagan avtonomiya esa barqaror jamoat siyosatini yaratmaydi.

L. Salamon davlat va notijorat sektor munosabatlarini o'zaro to'ldiruvchilik sifatida baholaydi: davlat huquqiy va moliyaviy imkoniyatga, NNTlar esa mahalliy ishonch, maxsus tajriba va maqsadli guruhlariga yetib borish qobiliyatiga ega [7]. R. Patnem mahalliy institutlar samaradorligini ishonch va gorizont al oqalardan tarkib topgan ijtimoiy kapital bilan bog'laydi [8], E. Ostromning co-production g'oyasi esa jamoat xizmati sifati davlat organi va fuqarolar resurslari birlashganda oshishini asoslaydi [9]. Biroq NNTni faqat arzon xizmat ko'rsatuvchi

pudratchi deb qarash uning vakillik va nazorat vazifasini zaiflashtiradi. Shuning uchun sheriklik huquqiy tartibi ham resurslarni birlashtirishi, ham NNTning tanqidiy mustaqilligini saqlashi shart.

«Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonun NNTlarni nazorat subyekti sifatida e'tirof etib, muhokama, eshituv, monitoring va jamoatchilik ekspertizasi kabi shakllarni belgilaydi [10]. Sheriklik NNTga loyiha ijrosida ishtirok etish imkonini bersa, nazorat uning natijasi va mablag'lar sarfini baholashga xizmat qiladi. Bir tashkilotning ham ijrochi, ham o'z faoliyati ustidan nazoratchi bo'lishi xolislikka shubha tug'dirishi mumkin. Shu bois Kengash reglamentida ijtimoiy buyurtma ijrochisi, mustaqil monitoring subyekti va komissiya a'zosi rollarini ajratish, manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish hamda tegishli shaxsni ovoz berishdan chetlashtirish qoidalarini mustahkamlash zarur.

«Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi Qonunning 18-moddasi viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzurida deputatlar, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat jamoat komissiyalarini nazarda tutadi [3]. Ammo tuman va shahar Kengashlari darajasida xuddi shunday doimiy mexanizm bevosita belgilanmagan. Bu bo'shliqni doimiy komissiyalar huzurida NNTlar ochiq tanlov asosida qatnashadigan maslahat guruhlarini tuzish, ular xulosasini sessiya materiallariga ilova qilish va rad etilgan taklifga asoslantirilgan javob berish orqali bartaraf etish mumkin. PF-124-son Farmon fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashni shaffof raqobatga asoslashni nazarda tutgani ham mazkur yondashuvni quvvatlaydi [11]. Qonunnin

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2023 йил 30 апрель. 69 ва 120-моддалар // <https://constitution.uz/uz/clause/index>.
2. Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 2 сентябрдаги 913-XII-сон «Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида»ги Қонуни // <https://lex.uz/docs/112170>.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 25 сентябрдаги ЎРҚ-376-сон «Ижтимоий шериклик тўғрисида»ги Қонуни [2025 йил 22 август ҳолатига] // <https://lex.uz/docs/2468214>.
4. Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 14 апрелдаги 763-I-сон «Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида»ги Қонуни // <https://lex.uz/docs/11360>.
5. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 256 б.
6. Нишонбоева Э.З. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий шериклик тамойиллари. – Тошкент: Шарқ, 2015.
7. Salamon L.M. Partners in Public Service: Government–Nonprofit Relations in the Modern Welfare State. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1995.
8. Putnam R.D., Leonardi R., Nanetti R.Y. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. – Princeton: Princeton University Press, 1993.
9. Ostrom E. Crossing the Great Divide: Coproduction, Synergy, and Development // World Development. – 1996. – Vol. 24, No. 6. – P. 1073–1087.
10. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 12 апрелдаги ЎРҚ-474-сон «Жамоатчилик назорати тўғрисида»ги Қонуни // <https://lex.uz/docs/3679092>.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 26 августдаги ПФ-124-сон «Фуқаролик жамияти институтларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони // <https://lex.uz/docs/7083841>.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil). – 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.